



UDK: 811.512.133

Shokhista ANVAROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: shohista9609@gmail.com

O'ZMU professori, f.f.d I.Siddiqova taqrizi asosida

O'ZBEK TILIDA ORNITONIM-LEKSEMALARNING SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi ornitonim-leksemalarning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda leksemaning ichki tuzilishi, xususan, semema va uning tarkibiy qismlari - atash, ifoda va vazifa semalari asosida yoritiladi. Ornitonimlarning poetik nutqda qo'llanishi va uslubiy imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ularning leksik-semantik guruhlariga ajratilishi hamda bir va ko'p sememali xususiyatlari tahlil etiladi. Tadqiqotda deskriptiv, analiz va sintez metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: ornitonim, leksema, semema, sema, semantik tahlil, leksik-semantik guruh, poetik nutq.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОРНИТОНИМОВ-ЛЕКСЕМ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ.

Аннотация

В статье анализируются семантические особенности орнитонимов-лексем в узбекском языке. Рассматривается внутренняя структура лексемы, в частности семема и её компоненты-денотативные, коннотативные и функциональные семы. Освещаются стилистические возможности орнитонимов в поэтической речи. Также проводится их классификация по лексико-семантическим группам и анализ одно- и многосемемных единиц. В работе использованы дескриптивный метод, а также методы анализа и синтеза.

Ключевые слова: орнитоним, лексема, семема, sema, семантический анализ, лексико-семантическая группа, поэтическая речь.

THE SEMANTIC FEATURES OF ORNITHONYM LEXEMES IN THE UZBEK LANGUAGE.

Annotation

This article analyzes the semantic features of ornithonym lexemes in the Uzbek language. It examines the internal structure of the lexeme, particularly the sememe and its components: denotative, expressive, and functional semes. The stylistic potential of ornithonyms in poetic discourse is also discussed. In addition, their classification into lexical-semantic groups and the distinction between mono-semantic and poly-semantic units are analyzed. The study applies descriptive, analytical, and synthetic methods.

Keywords: ornithonym, lexeme, sememe, seme, semantic analysis, lexical-semantic group, poetic discourse.

Kirish. Til tarkibi, tilning so'z boyligi jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarga uchraydi. Tilshunoslikda esa qushlarga tegishli bo'lgan barcha ifodalar uslubiy o'rganiladi. Qushlarning tashqi ko'rinishi, yashash tarzi, sayrashi kabi xususiyatlaridan kelib chiqib, turli til birliklari qo'llaniladi. Zoonimlarni o'rganishda turli xil yondashuvlar va yo'nalishlar bilan tadqiqotchilar zamonaviy tilning frazeologik zoonimlari semantikasida antropotsentriзмning umumiy tendensiyasi, shuningdek, hayvon nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklarning tarqalishi va bunday holatlar jahondagi juda ko'p tillar uchun universalligidan kelib chiqadi[1]. Dunyo tillarida ular insonning majoziy xususiyatini ifodalash sifatida faol qo'llaniladi, chunki bunday birliklar yuqori konnotativ salohiyatga egaligi bilan tilshunoslar e'tiborini o'ziga tortadi. Badiiy matnda qushlar nomi bilan bog'liq tasviriy vositalar ham ko'p uchraydi. Ayniqsa, nazmiy asarlarda metafora, metonimiya va qushlar nomi bilan bog'langan tasviriy vositalar, sinekdoxalarga qator misollar topish mumkin. Qushlarning nomlarini birlashtiruvchi semantik guruh tarixan nisbatan ochiq tuzilishga ega bo'lib, bunday atamalar tilda yo'q bo'lib ketishi yoki yangilari bilan almashtirilishi mumkin[2]. Qushlar haqidagi dastlabki adabiyotlardagi bitiklar ilmiy jihatdan emas, balki badiiy tomondan tasvirlangan. Lekin ornitologiyaning maqsadi qushlarni ilmiy o'rganish sanaladi. Qushlar terminologiyasi mavzusi ko'plab mualliflar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning turli tillarda o'ziga xos nomlanishi tahlil qilingan.

Shuningdek, qushlarning nomlanishini semantik, etimologik, lingvistik-geografik va boshqa jihatlarini tadqiqi bo'yicha izlanishlar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlil. Ornitonim va til birligi sifatida so'zning leksik-semantik va tilda tizimli tuzilishini tahlil qilishda M.Myager, N.V.Nikonchuk, L.F.Moiseyeva, O.A.Rijkina, M.Isayev, Z.G.Murkelinskaya, E.A.Nagomina, Z.R.Sadikova kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanish natijalarini olib borganlar. Qushlar nomlarini ifodalovchi lingvistik birliklarni milliy-madaniy nuqtai nazardan, shuningdek ularni frazeologik birliklar komponentlari sifatida N.P.Pimenova, S.G.Gadjiyeva, G.M.Vishnevskaya, T.V.Fedorova kabi olimlar tadqiq etganlar.

So'ngi yillarda o'zbek tilshunosligida ham zoonimlar bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Bularga misol qilib, T.Z.Zoxidova, D.X.Bazarova, N.Abduraxmonov, D.B.Yo'ldosheva, D.A.Tosheva kabi olimlar qush nomlarini semantik, sintaktik va struktur jihatdan tadqiq etdilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot o'zbek tilidagi ornitonim-leksemalarning semantik xususiyatlarini tizimli ravishda o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda zamonaviy tilshunoslikning nazariy va amaliy yondashuvlari uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida bir nechta o'zaro bog'liq metodlar majmuasidan foydalanildi. Avvalo, deskriptiv (tasviriy) metod asosida o'zbek tilidagi ornitonim-leksemalarning mavjud holati, ularning lug'aviy birlik sifatidagi xususiyatlari hamda nutqda qo'llanish ko'lamlari

tavsiflandi. Ushbu metod yordamida ornitonimlarning semantik tarkibi, ya'ni semema va uning komponentlari - atash (denotativ), ifoda (konnotativ) va vazifa (funktional) semalari aniqlanib, ularning o'zaro munosabati yoritildi. Shuningdek, tadqiqotda struktur-semantik tahlil metodi muhim o'rin tutadi. Bu metod orqali ornitonim-leksemalarning ichki tuzilishi komponentlarga ajratilib, har bir semaning mazmunini yuklamasi alohida tahlil qilindi. Xususan, leksema tarkibidagi semalar ierarxiyasi, ularning yadro va periferik qatlamlari aniqlanib, sememalarning shakllanish mexanizmi ochib berildi.

Analiz (tahlil) metodi yordamida alohida ornitonim birliklar misolida ularning semantik tarkibi chuqur o'rganildi. Har bir leksema tarkibidagi semalar ajratilib, ularning turli nutqiy vaziyatlarda qanday ma'no ifodalashi ko'rsatildi. Ayniqsa, ko'p sememali ornitonimlarning ma'no kengayishi, ko'chma ma'noda qo'llanishi va konnotativ yuklamasi aniqlashtirildi. Sintez metodi esa olingan natijalarni umumlashtirish, ornitonim-leksemalarni muayyan leksik-semantik guruhlariga birlashtirish va ularning umumiy xususiyatlarini aniqlashda qo'llanildi. Ushbu metod asosida ornitonimlarning bir sememali va ko'p sememali turlari tizimlashtirildi hamda ularning funksional imkoniyatlari umumiy nazariy xulosalar bilan boyitildi. Bundan tashqari, tadqiqotda tasniflash (klassifikatsiya) metodidan foydalanilib, ornitonim-leksema umumiy va farqlovchi semalar asosida leksik-semantik guruhlarga ajratildi. Bu jarayonda umumlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differensial) semalar asosiy mezon sifatida olindi.

Kontekstual tahlil metodi orqali ornitonimlarning badiiy, ayniqsa poetik nutqdagi qo'llanish xususiyatlari o'rganildi. Ushbu metod yordamida ornitonimlarning uslubiy bo'yoqdorligi, obrazlilikni kuchaytirishdagi roli hamda muallif individual uslubini ifodalashdagi ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqotning empirik bazasini o'zbek tilining izohli lug'atlari, badiiy adabiyot namunalari, xususan, nazmiy va nasriy matnlar tashkil etdi. Tanlangan materiallar asosida ornitonim-leksemalarning real nutqiy qo'llanishi kuzatilib, nazariy xulosalar amaliy dalillar bilan mustahkamlandi. Mazkur metodlar majmuasi tadqiqotning izchilligi, ilmiy asoslanganligi va natijalarning ishonchligini ta'minladi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, leksema ikki tomon shakl va mazmun tomonga ega bo'lgan til birligidir [3]. Sistem leksikologiyada leksemaning shakl tomoni nomema, mazmun tomoni ma'nosi ichki tomoni, signifikati esa semema deb yuritiladi. Shunga binoan leksema = nomema + sememadan tashkil topgan deyish mumkin.

Nutqda, ayniqsa, she'riy nutqda nomema katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, she'riy nutqda qofiya, radif, tajnisning o'nlab turlari, bir qancha lafziy va harfiy san'atlar nomemaning xususiyatlariga tayanadi. Biz ham ushbu maqolamizda ornitonimlarning she'riy san'atlarni shakllantirishdagi imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rganishga harakat qilamiz. Bu esa poetik nutqda nomema va uning uslubiy jihatdan voqelanishi katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Ammo, shuni ham unutmaslik kerakki, leksemalarning, jumladan, ornitonim-leksemalarning sistem tahlilidagi asosiy tayanch nuqta ularning ichki tomoni, ya'ni sememalarning tarkibini aniqlashdir.

Har qanday leksemaning ichki tomoni, uning mazmuni, ma'nosi nimani ifodalab kelishiga semema deyiladi. Semema ko'pincha inson ongidagi ma'lum bir tushuncha yoki tushunchalar tizimi bilan bog'liq bo'ladi. Agar tushuncha ong, mantiq birligi bo'lsa, semema tilga, aniqrog'i, leksemaga xos birlikdir.

Tilshunoslikda sememani hosil qiluvchi ma'no bo'laklari leksemaning tarkibiy qismlari sema deb yuritiladi.

Masalan, «mayna» ornitonim-leksemasining sememasi taxminan quyidagi ma'no bo'laklari semalardan iboratdir:

- 1) qush;
- 2) chug'urchiqlar oilasiga mansub;
- 3) mayda qush;
- 4) sayroqi;
- 5) qishloq xo'jaligi uchun foydali;

6) uchadi kabilar[4]. Bu o'rinda «mayna» ornitonim-leksemasi sememasining oltita ma'no bo'lakchalari semalari aniqlandi, xolos. Bunday semalar sanog'ini yana davom ettirish mumkin. Lekin ayni vaqtda yuqorida keltirilgan olti semaning o'ziyoq «mayna» leksemasining ichki tomoni haqida bizga muayyan tasavvur bera oladi. Shuni ham aytish kerakki, semema tarkibidagi semalar tabiati bir xil emas. Semantik tahlil bilan shug'ullanuvchi olimlar ma'no xususiyatiga ko'ra semema tarkibidagi semalarni quyidagi uch guruhga ajratib [5] o'rganmoqdalar:

-Atash semalari yoki denotativ semalar. Bunday semalar ob'yektiv borliqdagi narsa-buyum, belgi-xususiyat, miqdor kabilarni atovchi, nomlovchi semalar sanaladi. Masalan, «burgut» ornitonimi 1) tashqi ko'rinishiga ko'ra «patli»; 2) harakat tarziga ko'ra «chaqqon»; 3) biologik xususiyatiga ko'ra «yovvoyi»; 4) fe'l-atvori, tabiatiga ko'ra «yirtqich» semalariga ega. Bu semalar atash semalari sanaladi. Tilshunoslikda leksemalarning ma'nodoshlik sinonimiya munosabatini aniqlashda, asosan, atash semalariga tayanib ish ko'riladi.

-Ifoda semalari deyilganda, semema tarkibidagi turli qo'shimcha ma'nolar (uslubiy bo'yoq, shaxsiy munosabat, qo'llanish doirasi kabilar) tushuniladi. Masalan, «burgut» deyilganda, yuqorida biz ta'kidlagan semalardan tashqari «qo'rqmas», «mard» semalari ham anglashiladi, bu semalar «burgut» sememasi tarkibidagi ifoda semalari bo'lib, ular muayyan matnlarda yuzaga chiqadi. Masalan, yozuvchi Said Ahmad burgutni «sahro sultoni» tasviriy ifodasi (perifraza) bilan nomlaganda, «burgut» ornitonimidagi xuddi ana shu semalar nazarda tutilgan edi: «Bo'rilarining etni jimirlashtiradigan ulishi, to'ng'izlarning ko'ksov yo'talidek yoqimsiz tovushi, echkemarlarning murda nigohidek sovuq boqishi, har yer-har yerda qolgan ilon po'stlarining ojiz yiltirashi va nihoyat, do'ngliklarda haykaldek qotgan sahro sultoni - cho'l burgutlarining: bu mening maskanim, odamga yo'l yo'q, degandek viqorli boqishi bu ikki yo'lovchining yuragiga vahm sololmasdi» [6].

-Vazifa semalari semema tarkibiga kiruvchi va ornitonim-leksemaning nutqda qanday vazifalarda kela olishini bildiruvchi semalar sanaladi. Bu semalar ornitonim-leksemaning birikuvchanligini sintaktik valentligini ham belgilab beradi. Masalan, quyidagi matnda «burgut» ornitonim-leksemasi sintaktik jihatdan ega vazifasini bajarmoqda: «Do'ngda chakmonini yelkasiga tashlab o'tirgan odamdek turgan vahimial burgut beozor qanot silkib, xuddi suvda suzayotgandek tik osmonga ko'tarildi» [7].

Shunday qilib, ornitonim-leksemalarning ichki tomoni semema bo'lib, uning tarkibida atash, ifoda va vazifa semalari mavjud bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ornitonim-leksema bir sememali va ko'p sememali bo'lishi mumkin. Masalan, ukki, qumoy, kuyka, quzzun, qarchizay, musicha, sa'va, miqqiy singari ornitonim-leksema bir sememali, nutqda faqat qush nomi sifatida qo'llanish xususiyatiga ega bo'lsa, yilqichi, qizilzoq, qiziltomoq, haydar kokil, boyo'gli, boyqush, birqozon, asalchilar, mayna, burgut, lochin, qaldirzoch, loyxo'rak, uzunquyruq, baliqchi, qorabovur, o'limtik, vohmaqush, dehqonchumchuq singari juda ko'plab ornitonim-leksema ko'p sememalidir, chunki ular nutqda ko'p ma'noli so'zlar, birikmalar sifatida yuzaga chiqadi.

Tilimizdagi orntonim-leksemalar ham boshqa leksemalar singari lug'aviy mazmuniy guruhlariga bo'linadi. LMG deyilganda, ma'lum bir umumiy belgi umumlashtiruvchi semalar asosida orntonim- leksemalarni muayyan bir guruhlariga birlashtirish tushuniladi. Leksemalarni LMGlarga ajratish muammosi o'zbek tilshunosligida qisman o'rganilgan» [8].

B.Abdushukurovning «XI- XIV asr turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar» nomli tadqiqot ishida esa qushlar nomini ifodalagan terminlarni 7 ta LMGga ajratgan [9]. Jumladan, lochin, burgut singari orntonim-leksemalar shaxsga nisbatan ham qo'llanadi. Bu masala H.Saidova va N.Nishonovalarning nomzodlik ishlarida ma'lum darajada tadqiq etilgan» [10].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilidagi orntonim-leksemalar semantik jihatdan murakkab va ko'p qatlamli tuzilishga ega bo'lib, ularning mazmuni semema

hamda uning tarkibiy qismlari — atash, ifoda va vazifa semalari orqali namoyon bo'ladi. Tadqiqot jarayonida orntonimlarning nafaqat nominativ birlik sifatida, balki uslubiy va konnotativ imkoniyatlarga ega bo'lgan til birliklari ekanligi aniqlandi. Ularning poetik nutqda faol qo'llanishi obrazlilikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, orntonim-leksemalarning bir va ko'p sememali xususiyatlari ularning nutqdagi funksional imkoniyatlarini kengaytirishi asoslab berildi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, o'zbek tilidagi orntonimlarni yanada chuqurroq o'rganish, ularning leksik-semantik xususiyatlarini tizimli ravishda tavsiflash, maxsus lug'atlar yaratish hamda boshqa tillar bilan qiyosiy tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ularning badiiy va ommaviy nutqdagi qo'llanish xususiyatlarini zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida o'rganish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Маклакова Е. Сопоставительный анализ фразеологических единиц с компонентом-зоонимом и их лексикографизация (на материале английского, французского и русского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2012.
2. Maxmudova N. Orntonimlarning semantik tasnifi haqida // In Fergana state university conference, 2023. – 92 b.
3. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 128 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati, besh jildlik. 2-jild. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b.
5. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 128 b.
6. Said Ahmad. Saylanma. Uch jildlik. 3-jild. Hikoyalar, komediya, miniatyuralar, adabiy o'yalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1982. – 640 b.
7. Said Ahmad. Saylanma. Uch jildlik. 1-jild. Qissalar, hajvlar, miniatyuralar. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 392 b.
8. Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. – Toshkent: O'qituvchi. 1996. – 48 b.
9. Abdushukurov B. XI-XIV asr turkiy yozma obidalar tilidagi zoonimlar: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – T., 1998. – 23 b.
10. Saidova H.A. O'zbek tilida hayvon nomlarining shaxs tavsifi vazifasida qo'llanilishi: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Samarqand, 1995. – 22 b.